

## QUROLLI KUCHLAR HARBIY XIZMATCHILARI MAQOMINING TARIXIY-NAZARIY TAHLILI

A.A. Tursunboyev

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20843223>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining maqomi tarixiy-nazariy va huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari tahlili orqali harbiy xizmatchilar maqomining tuzilishi, mazmuni va huquqiy tabiati ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** mudofaa va xavfsizlik, harbiy xizmat, harbiy xizmatchi, harbiy xizmatchilar maqomi, maxsus maqom, huquqlar, majburiyatlar, cheklovlar, javobgarlik, ijtimoiy kafolatlar.

## ИСТОРИКО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СТАТУСА ВОЕННОСЛУЖАЩИХ ВООРУЖЕННЫХ СИЛ

**Аннотация.** В данной статье с историко-теоретической и правовой точки зрения анализируется статус военнослужащих Вооруженных Сил. На основе анализа взглядов отечественных и зарубежных ученых раскрыты структура, содержание и правовая природа статуса военнослужащих.

**Ключевые слова:** оборона и безопасность, военная служба, военнослужащий, статус военнослужащих, особый статус, права, обязанности, ограничения, ответственность, социальные гарантии.

## HISTORICAL AND THEORETICAL ANALYSIS OF THE STATUS OF MILITARY PERSONNEL OF THE ARMED FORCES

**Abstract.** This article analyzes the status of military personnel of the Armed Forces from a historical-theoretical and legal point of view. Through the analysis of the views of domestic and foreign scientists, the structure, content, and legal nature of the status of military personnel are revealed.

**Keywords:** defense and security, military service, serviceman, status of servicemen, special status, rights, obligations, restrictions, responsibility, social guarantees.

Dunyoda yuz berayotgan globallashuv, geosiyosiy keskinliklar va axborot urushlari sharoitida davlatlarning mudofaa salohiyatini mustahkamlash, xavfsizlikni ta’minlash, qolaversa harbiy xizmatchilarning maqomini takomillashtirish masalalari har qachongidan ham dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigida «Ayni vaqtda barchamiz yaxshi anglaymizki, hozirgi vaqtda, dunyo miqyosida turli xavf-xatarlar, qurolli to‘qnashuvlar tobora avj olib borayotgan o‘ta murakkab vaziyatda Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini, harbiy xizmatchilarning jismoniy va ma’naviy shayligini oshirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida bu borada boshlagan ishlarimizni mutlaqo yangi sifat bosqichiga ko‘tarishimiz shart.

Xususan, Qurolli Kuchlarimizni yangi, modernizatsiya qilingan o't ochish tizimlari va texnika bilan ta'minlashni harbiy harakatlar teatri xususiyatlarini, qo'shinlarni ivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda davom ettiramiz»[1] deb ta'kidlab o'tgan edilar.

Harbiy xizmatchilar davlat suvereniteti va hududiy yaxlitlikning tayanchi, har qanday favqulodda holatlarda va milliy xavfsizlikka qaratilgan xurujlarga qarshi birinchi saflarda turadigan ijtimoiy qatlamdir. Shu sababli ularning maqomini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish nafaqat harbiy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, balki milliy xavfsizlik konsepsiyasini mukammallashtirishda ham muhim omil hisoblanadi.

Qolaversa harbiy xizmatchilar maqomini ilmiy-nazariy tahlil qilish, o'rganish orqali milliy va xalqaro tajribalar tahlil qilinib, tarixiy harbiy an'analar asosida zamonaviy talablar takomillashtiriladi. Eng muhimi harbiy xizmatchilar maqomini ilmiy-nazariy tahlil qilish orqali amalda davlat xavfsizligi, armiya salohiyati, harbiy xizmatchilarning huquqiy va ijtimoiy himoyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yurtimizda harbiy xizmatchilarning maqomining nazariy huquqiy asoslari bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan M.X.Rustambayev, D.M.Mirazov, M.M.Nurmatov, M.M.Maxsodov, J.R.Jo'rayev, A.V.Kudashkin, N.V.Artamonov, Y.I.Migacheva, N.V.Vitruk, S.G.Lisenkov, A.A.Stremouxov, K.G.Shvetovalar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan.

Tadqiqotchi X.M. Olimjonov tomonidan Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasining nazariy asoslari ilmiy tadqiq etilgan[2].

Tadqiqotchi SH.M. Kurbanov tomonidan mudofaa va xavfsizlik institutining asosiy toifalari sifatida "harbiy xizmat" va "harbiy xizmatchi" tushunchalarining ilmiy-huquqiy asoslari ko'rib chiqilgan. Mahalliy va xorijiy tadqiqotlarni tahlil qilish asosida zamonaviy jamiyatda harbiy xizmatning mohiyati, huquqiy tabiati va ijtimoiy ahamiyati ilmiy tadqiq etilgan[3].

Harbiy xizmatga oid manbalardan ma'lum bo'lishicha harbiy xizmat munosabatlarini yozma shaklda rasmiylashtirish asr boshlarida Germaniyada amalga oshirilgan[4].

Rus olimi I.V.Nosov ta'kidlaganidek, "harbiy xizmat fuqarolik burchining o'ziga xos shakli bo'lib, u davlat tomonidan o'rnatilgan huquqiy me'yorlar asosida amalga oshiriladi va davlatning mudofaa qobiliyatini ta'minlashga qaratiladi"[5]. Uning fikricha, harbiy xizmat huquqiy kategoriya sifatida nafaqat tashkiliy-intizomiy munosabatlar majmui, balki ijtimoiy adolat, qonuniylik va fuqarolik burchining ifodasi hamdir.

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi harbiy qasamyodga quyidagicha ta'rif berilgan. Harbiy qasamyod - Qurolli Kuchlar safiga kirayotgan har bir fuqaroning Konstitutsiya va qonun talablariga binoan Vatanni himoya qilishdek muqaddas burchni bajarishga beradigan tantanali va'dasi (qasami). Harbiy xizmat qabul qilish marosimi aksariyat davlatlar qurolli kuchlarida qadimdan mavjud. Xususan, harbiy qasamyod qabul qilish o'tmishda Mahmud G'aznaviy, Amir Temur armiyalarida ham bo'lgan. Harbiy qasamyod mazmuni xalqning urf-odatlarini, an'analari bilan bog'liq. Harbiy qasamyod Vatanni munosib himoya qilish bo'yicha harbiy xizmatchiga qo'yiladigan asosiy talablarni mujassam etadigan huquqiy hujjatdir. Harbiy qasamyod qurolli kuchlarda harbiy intizomni mustahkamlash, uyushqoqlik va harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik hissiyotlarini uyg'otishda katta rol o'ynaydi[6].

Harbiy xizmatchilar maqomini ilmiy-nazariy tahlil qilishdan avval harbiy xizmatchilarning maqomiga oid tushunchalarni mazmun-mohiyatini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Eng birinchi navbatda “maqom” o‘zi nima degan savolga javob topishimiz zarur. “Maqom” arabcha “maqām” so‘zidan olingan bo‘lib, “joy, o‘rin, turmoq, ko‘tarmoq” ma‘nolarini anglatadi.

Maqom ko‘proq shaxsning jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy qadriyatini ifodalaydi[7].

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida “maqom” so‘ziga quyidagicha ta‘rif berilgan.

Maqom - saylab qo‘yiladigan shaxslar, fuqarolar, davlat idoralari, tashkilot, muassasa, xalqaro tashkilotlarning normativ akti bilan rasmiylashtirilgan huquqiy holati, ular huquq va majburiyatlarining yig‘indisi[8]. Status so‘zi esa lotincha “status” so‘zidan olingan bo‘lib “holat, vaziyat” ma‘nolarini bildirib huquq subyektlarining huquq va majburiyatlari majmuini ifoda etuvchi, huquq normalari bilan belgilangan holat[8].

Harbiy xizmatchi - haqiqiy harbiy xizmatdagi fuqaro[9].

Rus olimi Y.A.Ustyugova harbiy xizmatchilar tushunchasiga quyidagicha ta‘rif bergan.

Uning fikricha “harbiy xizmatchilar - muayyan ijtimoiy zarur funksiyalarni amalga oshiruvchi va qonunda harbiy xizmat ko‘zda tutilgan muassasalar hamda davlat organlari va tashkilotlarida vazifalarni bajaruvchi huquqning alohida subyektlaridan iborat bo‘lgan ijtimoiy guruh”[10].

V.A. Kuchinskiy harbiy xizmatchilar maqomini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilib, “yuridik javobgarlik bu harbiy xizmatchilarning maqomi tuzilishi elementi sifatida qaralishi kerak”[11] degan fikri harbiy xizmatning huquqiy tabiatiga oid muhim nazariy yondashuv sifatida e‘tirof etishimiz mumkin. Chunki harbiy xizmatchining maqomi ham umumfuqarolik huquqlariga qo‘shimcha tarzda maxsus majburiyatlar, cheklovlar va albatta yuridik javobgarlik mexanizmlari bilan mustahkamlanadi.

Harbiy xizmatchilarning maqomi N.V.Artamonov tomonidan maxsus tadqiq etilib, o‘zining doktorlik dissertatsiya ishi doirasida harbiy xizmatchilarning maqomi tushunchasi, tuzilishi va xususiyatlari o‘rgangan. Uning ta‘kidlashicha “harbiy xizmatchilar alohida maqomga ega kategoriya. Ularning maqomi umumfuqaroviy, shu jumladan konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar, hamda harbiy xizmat talablaridan kelib chiqadigan majburiyatlar va huquqiy javobgarlikdan iboratdir” degan fikrni ilgari surgan. Muallifning fikriga qo‘shilgan holda harbiy xizmatchilar maqomi kompleks, ko‘p qatlamli ijtimoiy-huquqiy institut sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq deb baholaymiz.

N.V.Artamonovning fikricha, “harbiy xizmatchilarning maqomi umumiy (umumfuqaroviy) va harbiy xizmatga oid qismlaridan iborat bo‘lib, ular bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan bo‘ladi” degan fikrni ilgari surgan[12].

Professor A.M.Dobrovolskiyning fikricha “harbiy xizmatchilarning maqomi boshqa fuqarolardan ma‘lum jihatlari bilan farq qiladi. Sababi harbiy xizmatning o‘ziga xos xususiyati harbiy xizmatchilarning maqomiga ta‘sir ko‘rsatadi”[13]. Olim bunga quyidagi omillar xizmat qilishini ta‘kidlagan: birinchidan, armiyaning qurolli to‘qnashuvlar uchun mo‘ljallangan tashkilot sifatidagi alohida ommaviy-huquqiy xususiyati, ikkinchidan, uni tashkil etuvchi harbiy intizom, harbiy qonun-qoidalar va tartibotning o‘zaro munosabatlarga ta‘siri, uchinchidan, davlat xizmati sifatidagi harbiy xizmatning mohiyati.

Muallifning harbiy xizmatchilar maqomi boshqa fuqarolardan farq qilishiga oid fikri o‘rinli. Sababi harbiy xizmatning o‘ziga xos xususiyatlari, qat‘iy harbiy intizom va harbiylar uchun maxsus talablar harbiy xizmatchi maqomining boshqa fuqarolar maqomidan farq qilishiga sabab

bo'ladi. Rus olimi I.V.Kudryavsev esa harbiy xizmatchilar huquqning maxsus subyekti ekanligini ta'kidlagan[14]. Fikrimizcha muallifning fikri juda o'rinli. Chunki harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy normalar oddiy fuqarolarga nisbatan farq qiladi va ular xizmatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib maxsus huquqlar, majburiyatlar va cheklovlarga ega bo'ladilar.

Yana bir rus olimi M.V.Palexin "harbiy xizmatchilarning maqomi tuzilishiga ko'ra murakkab huquqiy konstruksiyadan iborat" ekanligini ta'kidlab, uni ikki qismdan umumiy va maxsus qismdan iborat ekanligini aytib o'tgan. Uning ta'kidlashicha "harbiy xizmatchining maqomi oddiy fuqaroning maqomi bilan uzviy bog'liq bo'lib, harbiy xizmatchi o'z davlatining fuqarosi sifatida umumfuqarolik maqomiga ega bo'ladi va barcha fuqarolariga tegishli bo'lgan huquqlar, erkinliklar, majburiyatlarni bajaradi va javobgarlikni o'z zimmasiga oladi"[15].

Olimning fikriga qo'shimcha tarzda shuni aytishimiz mumkinki, harbiy xizmatchilarning maqomi bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan harbiy xizmatilar davlatni qurolli hujumlardan himoya qilish majburiyatlarini bajarishi, har qanday sharoitda, jumladan hayotini xavf tug'ulgan paytda ham zimmasiga yuklatilgan vazifalarni so'zsiz bajarishi kabi holatlar ularning umumfuqarolik huquqlarining amalga oshirish tartibi bilan harbiy xizmat munosabatlari o'rtasida ba'zi obyektiv qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirib chiqaradi.

Harbiy xizmatchilar qonunda belgilangan muayyan cheklovlar inobatga olgan holda shaxs va fuqaro sifatida huquq va erkinliklariga ega. Harbiy xizmatchilarning maqomi tuzilishi, tarkibi va tabiati haqida rus olimi N.V. Antipeva "harbiy xizmatchilarning maqomini alohida deb hisoblanish kerak, chunki u maxsus huquq va majburiyatlarni o'z ichiga oladi[16]" deb hisoblagan.

Muallifning "harbiy xizmatchilar maqomi "alohida maqom" sifatida baholanishi kerak" degan qismiga qo'shilamiz va qo'shimcha ravishda aytishimiz mumkinki, harbiy xizmatchilarning maqomini faqat "aholining alohida huquqiy toifasi" sifatida talqin qilish uning tuzilmasini to'liq qamrab olmaydi. Chunki harbiy xizmatchi maqomi konstitutsiyaviy huquqlar, harbiy xizmatdan kelib chiqadigan cheklovlar, ijtimoiy kafolatlar, davlat tomonidan qo'shimcha himoya, harbiy intizom va xizmat rejimi kabi o'zaro bog'liq ko'p qirrali normalardan tarkib topadi.

Tadqiqotchi D.V.Tixonov esa "harbiy xizmatchilarning maqomi - bu qo'shimcha huquqlar, erkinliklar, burchlar va manfaatlarni kiritish yoki bekor qilish orqali umumiy huquqiy maqomning ixtisoslashuviga vositachilik qiladigan boshlang'ich, asosiy va xavfsizlik komponentlari to'plamidan iborat" degan fikrni ilgari surgan[17]. Bizningcha muallifning fikri harbiy xizmatchi maqomini asosan huquqiy-komponentlar yig'indisi sifatida talqin qilinib, uning keng ijtimoiy, psixologik va ma'naviy jihatlarini to'liq qamrab olmaydi. Davlat ijtimoiy himoyasi va kafolatlar, xizmat xavfining yuqoriligi, harbiy intizom va subordinatsiya, xizmatga oid psixologik-axloqiy talablar kabi omillar bilan ham ularning maqomini shakllanishida alohida ahamiyatga ega.

Harbiy xizmatchilarning maqomi, uning paydo bo'lishi va tugatilishining huquqiy shartlari fuqarolarning konstitutsiyaviy fuqarolik huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Bir tomondan, harbiy xizmatchilar umumiy qonunchilik normalariga bo'ysunadilar, shuning uchun ular boshqa fuqarolar singari huquqlarga ega, boshqa tomondan, ularga nisbatan maxsus harbiy qonunchilik hujjatlari qo'llaniladi, bu harbiy xizmatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, harbiy xizmatchilarni nafaqat qo'shimcha huquqlar (masalan, ijtimoiy nafaqalar, kafolatlar), shuningdek qo'shimcha majburiyatlar yuklanadi.

Bu borada S.V. Shanxayevning “harbiy xizmatchilarning maqomi ular yuqori lavozimga ko‘tarilganda, unvoni oshganda harbiy xizmatchilarning huquqlari va erkinliklariga ta’sir qiladi” degan fikriga qo‘shilamiz. Shuningdek uning ta’kidlashicha “harbiy xizmatchilarning “ko‘tarilishi” ularning rasmiy va huquqiy maqomiga bevosita ta’sir qiladi, ularning xizmat vazifalari va huquqlari doirasini, shuningdek, keyingi harbiy xizmatni o‘tash shartlari va tartibini sezilarli darajada o‘zgartiradi”[18] degan fikriga qo‘shilamiz. Harbiy xizmatchilarning maqomi, ularning harbiy xizmatni o‘tash tartibi va shartlari harbiy xizmat vazifalarini bajarishda huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan ixtisoslashtirilgan huquqiy normalar tizimini yaratishga asoslangan davlatning harbiy va ijtimoiy siyosati bilan bevosita bog‘liqdir.

Yana bir rus olimi L.D Voyevodin Qurolli Kuchlar saflarida harbiy xizmatni o‘tash harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklariga bevosita ta’sir qiladi degan fikrni ilgari surgan. Unga ko‘ra harbiy xizmat o‘z tabiatiga ko‘ra obyektiv ravishda muayyan cheklovlar va taqiqlar bilan, jamiyat va davlat ahamiyatidagi vazifalarni bajarish bilan bog‘liq holda olib boriladi. Olimning “Qurolli Kuchlarda harbiy xizmatni o‘tash harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklariga bevosita ta’sir qiladi” degan fikri juda o‘rinli, biz bunga qo‘shilamiz. Chunki harbiy xizmatning o‘ziga xos xususiyatlari, qat’iy harbiy intizom, xizmat joyini tanlash huquqining cheklanganligi, xizmat vaqtiga doir cheklovlar, xavfli xizmat sharoitlari, harbiy xizmatchining umumfuqaroviy huquqlaridan foydalanishiga muayyan tarzda ta’sir ko‘rsatishi tabiiydir. Biroq, harbiy xizmat faqat cheklovlar emas, balki harbiy xizmatchilar huquqlarini kengaytiruvchi qo‘shimcha kafolatlar va imtiyozlarni ham nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan cheklovlar va kengaytirilgan ijtimoiy-huquqiy kafolatlar birgalikda talqin qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

A.E. Ushamirskiy ta’kidlashicha, “harbiy xizmatchilarning maqomi “cheklangan toifa”ga kiradi, sababi ularning maqomining asosiy qismini majburiyatlar tashkil etadi, lekin bu ma’lum bir ijtimoiy guruhning ya’ni harbiy xizmatchilarning subyektiv huquqlari o‘zining fundamental ahamiyatini yo‘qotadi yoki ikkinchi planda qolib ketadi, degani emas” deb ta’kidlagan[19].

Olimning fikrlari juda o‘rinli va asosli deyishimiz mumkin. Rus olimi V.V.Kozlovning ta’kidlashicha “harbiy xizmatchilarning maqomi odatda ularning davlat tomonidan kafolatlangan huquq va erkinliklari, shuningdek, qonunda belgilangan burchlari va majburiyatlari yig‘indisi”dir. Shuningdek, olimning ta’kidlashicha, harbiy xizmat bilan bog‘liq taqiqlar va cheklovlar harbiy xizmatchilar tomonidan mamlakat mudofaasi va xavfsizligi sohasidagi vazifalarni samarali va sifatli bajarish uchun amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan muayyan harakatlarni belgilovchi huquqiy normalari yig‘indisi hisoblanib, harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar harbiy xizmatchilar uchun yuridik javobgarlikka sabab bo‘ladigan, harbiy xizmat munosabatlarini muddatidan oldin tugatish uchun asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan korrupsiya va boshqa mansab mavqeini suiiste’mol qilish holatlariga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida harbiy huquq normalari bilan belgilangan qoidalar tizimi ekanligini bayon etgan.

A.M.Dobrovolskiyning fikricha “...harbiy xizmatchilarning maqomi harbiy xizmatning o‘ziga xos xususiyati tufayli boshqa fuqarolarnikidan farq qiladi” degan fikrni ilgari surgan[20]. Olim harbiy xizmatchilarning ommaviy huquq sohasidagi huquqiy maqomining o‘ziga xos

xususiyatlari haqida gapirar ekan, ular harbiy xizmatchilarga nisbatan umumiy huquqning ba’zi normalari qo‘llanilmasligini, ayrim hollarda ularning rasmiy maqomining xususiyatlaridan kelib chiqib harbiy xizmatchilar uchun maxsus normalar yaratilishini ta’kidlagan.

Ya'ni harbiy xizmatchilar umumiy harbiy qoidalar talablari bilan o'rnatilgan tartib va qoidalarga qat'iy amal qilishini aytib o'tgan. Shu bilan birga, harbiy xizmat o'tashning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, harbiy xizmatchilarning umumfuqaroviy huquqlari cheklanishi yoki aksincha, ularga boshqa fuqarolarga nisbatan imtiyozlar berilishi mumkin.

Mamlakat fuqarosi sifatida harbiy xizmatchilar umumiy konstitusiyaviy huquqlar, erkinliklar va majburiyatlarga ega. Harbiy xizmatchilar tomonidan fuqarolik huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud, ya'ni qonunchilik hujjatlari orqali harbiy xizmatchilarning ayrim huquq va erkinliklariga cheklovlar o'rnatiladi. Harbiy xizmatchilarning maqomining o'ziga xos xususiyati shundaki ularning komandir (boshliq)lariga so'zsiz bo'ysunish va xizmat subordinatsiyasiga amal qilishiga bog'liq. Quyida harbiy xizmatchilarning maqomini kichik guruhlariga bo'lgan holda ko'rib chiqishimiz mumkin.

- *fuqaroviy maqomi* (konstitusiyaviy huquqlar, erkinliklar, kafolatlar, javobgarlik);
- *davlat xizmatchisi sifatidagi maqomi* (shu jumladan davlat xizmatchilariga va xususan harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladigan rasmiy xatti-harakatlarga qo'yiladigan talablar);
- *umumiy maqomi* (barcha harbiy xizmatchilarga tegishli);
- *idoraviy maqomi* (huquqlar, majburiyatlar, cheklovlar va taqiqlar, kafolatlar, alohida qo'shin turi va ularning harbiy xizmatchilari faoliyatining huquqiy asoslarini belgilaydigan harbiy qonunlarga muvofiq belgilanadi);
- *rasmiy maqomi* (harbiy xizmatchiga uning lavozimiga muvofiq qonun hujjatlarida, umumiy harbiy nizomlarda, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarda hamda nizomlarda belgilanadigan huquq va majburiyatlar);

- *maxsus maqom* (ma'lum vaqtlarda va vaqtinchalik beriladigan qo'shimcha huquq va majburiyatlar masalan, qurol ishlatish, jismoniy kuch ishlatish, jangovar xizmat vaqtida majburiy bo'lgan talablarni joriy etish va qo'llash, jangovar cheklovlar va taqiqlar, kafolatlar, javobgarlik).

Harbiy xizmatchilar bu oddiy fuqaro maqomidan farq qiladigan ma'lum ma'muriy-huquqiy maqomga ega huquqiy tizimining alohida subyekti hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, harbiy xizmatchilarning maqomi – davlat va jamiyat bilan o'zaro munosabatlarda huquq va erkinliklar, qonuniy manfaat va kafolatlar, vazifa va vakolatlar, majburiyat va cheklovlar hamda javobgarlikni belgilab beruvchi huquqiy normalar yig'indisidir.

Harbiy xizmat o'tashning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, harbiy xizmatchilarning maqomi harbiy xizmatni o'tash vaqtida, shuningdek harbiy xizmatdan bo'shatilgan keyin ularga qo'yiladigan cheklovlar va taqiqlarni ham o'z ichiga oladi. Fuqaro harbiy xizmatni o'tashga kirishgan paytdan boshlab u harbiy xizmatchi maqomiga ega bo'ladi, harbiy xizmatning tugashi bilan ya'ni harbiy qism shaxsiy tarkibi ro'yxatidan chiqarilgan vaqtdan boshlab bu maqomni yo'qotadi.

Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining maqomi kompleks ijtimoiy-huquqiy institut bo'lib, u davlat tomonidan kafolatlangan huquq va erkinliklar, maxsus majburiyatlar, cheklovlar, javobgarlik hamda ijtimoiy kafolatlar majmuasidan iboratdir. Harbiy xizmatning o'ziga xos xususiyatlari harbiy xizmatchilar maqomini oddiy fuqarolar maqomidan farqlaydi va unga alohida huquqiy tartibni belgilaydi. Mazkur maqom davlat xavfsizligi va mudofaa salohiyatini ta'minlashda muhim omil bo'lib, uni takomillashtirish harbiy xizmat nufuzi, kadrlar barqarorligi hamda ijtimoiy adolatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi/ <https://president.uz>
2. Olimjonov X.M. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasini nazariy asoslari. <https://inlibrary.uz/index.php/>
3. Курбанов Ш. М. / Понятия военной службы и военнослужащего и некоторые вопросы их определения. Multidisciplinary and Multidimensional Journal (MMJ) Vol. 4 No. 11 (2025):
4. Военная служба и военнослужащий в Российской Федерации: конституционно-правовое регулирование. – М.: Военный университет, 2001. – 340 с. С. 84
5. Носов И.В. Военная служба как правовое явление в условиях современного российского государства // Юридическая наука. – М., 2020. – № 4. – С. 12–19.
6. <https://qomus.info/> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси
7. <https://en.wiktionary.org/wiki/>
8. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. <https://qomus.info>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 sentabrdagi PQ-4447-son “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi nizomi, O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi <https://lex.uz/uz/>
10. Устюгова, Е. А. Особенности статуса военнослужащих / Е. А. Устюгова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2022. — № 6 (401). — С. 234-236. — URL: <https://moluch.ru>
11. Кучинский В.А. Личность, свобода, право. М., 1978. С. 115.
12. Артамонов Н.В. Правовой статус советских военнослужащих и его обеспечение. М., 1984. С. 14-15.
13. Добровольский А.М. Особенности положения военнослужащих в области публичного права. - СПб., 1913. - С.3-4.
14. Кудрявцев И. В. Сотрудник правоохранительных органов как специальный субъект права // Российская полиция: три века служения Отечеству [Электронный ресурс]: материалы юбилейной междунар. науч. конф., посвященной 300-летию рос. полиции. Санкт-Петербург, 23 – 25 апреля 2018 г. / под ред. Н. С. Нижник; С.-Петербург. ун-т МВД России. СПб., 2018. С. 1084 – 1085.
15. М.В.Палехина «К вопросу о гражданско-правовом статусе военнослужащего». // <https://cyberleninka.ru>
16. Антипьева Н.В. К вопросу о понятии «военнослужащий» // Право в Вооруженных Силах, 2013, № 1. С.7.
17. Тихонов Д.В. Конституционно-правовые гарантии прав и свобод лиц со специальным статусом в России : автореферат дис. ... кандидата юридических наук : 12.00.02 / Тихонов Дмитрий Викторович; [Место защиты: Белгород. гос. нас. исслед. ун-т]. - Белгород, 2015. - 22 с.

18. Шанхаев, С.В. Перемещение по службе военнослужащих, проходящих военную службу по контракту, как основание изменения их правового статуса [ Текст] / С.В. Шанхаев // Рос. военно-правовой сб. - 2007. - № 9. - С. 317.
19. Ушамирский А.Э. Механизм реализации субъективных прав военнослужащих в России (Вопросы теории и практики): Дисс. ... на соиск. канд. юрид. наук. Волгоград, 2006. С. 31.
20. Добровольский, А.М. Особенности положения военнослужащих в области публичного права. Санкт-Петербург. — Издание 1913.- С. 3.